XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-32-43-11-158-K/21 Rishton tumani hokimligi

Yer solig‘i to‘lash stavkasi bo‘yicha zona chegaralarining sxemasi va tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28-moddasi, Soliq kodeksining 437-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrdagi O‘RQ-589-son “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ–3454-son “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori 28-bandi ijrosi yuzasidan yer solig‘i to‘lovlarini o‘z vaqtida mahalliy byudjetga undirilishini ta’minlash, yer solig‘i to‘lash stavkalari asosida hududdagi zona chegaralarini belgilash va tariflarini joriy qilish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari rishton tuman kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrdagi O‘RQ-589-son “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq o‘rnatilgan stavkalar asosida Rishton tumani hududida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yer solig‘ini to‘lash stavkalari bo‘yicha Rishton tumanining hududiy zona chegaralari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Rishton tuman Davlat soliq inspeksiyasi (D.Raximov)ga:

ilovaga muvofiq tasdiqlangan zonalar hududi bo‘yicha yer solig‘ini to‘lovchilardan soliqlarni hisoblash va undirish;

barcha qishloq va mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarida soliqlarning ahamiyati, ayrim toifadagi jismoniy shaxslarga soliqlardan beriladigan imtiyoz to‘g‘risida, shuningdek soliqlarning o‘z vaqtida to‘lab borilishi to‘g‘risida keng tushuntirish ishlarini olib borish;

aholi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bo‘yicha amaldagi me’yori-huquqiy hujjatlarning mohiyati yuzasidan qishloq
va mahalla fuqarolar yig‘ini raislari hamda faollar ishtirokida muntazam ravishda seminar yig‘ilishlar o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining 2020 yil “02”fevraldagi 160-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror Rishton xaqiqati gazetasida rasman e’lon qilinsin
va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Mustafoqulov zimmasiga yuklansin.

Туман хокими **С.Солиев**